

O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Tibbiyotda psixodagnostik metodlar

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari psixologiya
fani bo‘yicha
o‘quv-uslubiy qo‘llanma

Toshkent-2025

Tuzuvchilar: **Gafurova S.SH.** – TTA Pedagogika va psixologiya psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchilar: **Sattarov T.F.** - TPTI psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya , psixoterapiya kafedrası dotsenti, PhD

Maxamatjanova N.M. - TTA Pedagogika va psixologiya psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

O'quv uslubiy qo'llanma TTA ilmiy-uslubiy kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan, bayonnoma № 2025 yil

O'quv uslubiy qo'llanma TTA Ilmiy kengashida muhokama qilingan va chop etishga tavsiya qilingan, bayonnoma № 2025 yil

O'quv-uslubiy qo'llanma tibbiyot oliygohlarining talabalari, umumiy amaliyot shifokorlari, psixologiya va tibbiy psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan magistrLAR hamda ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borayotgan ilmiy xodimLAR ham foydalanishlari mumkin.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.03.2018 yildagi PQ-3606-sonli "Psixiatriya yordami ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida hamda 12.05.2021 yildagi «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi O'RQ-690-son Qonunning yangi tahriri bo'yicha Oliy Majlis va Senat tomondan qabul qilingan yo'riqnomalarda ham aholi orasida ruhiy buzilishlar profilaktikasi va psixoterapevtik yordam ko'rsatishni takomillashtirish va malakali kadrlarni tayyorlashga oid ko'rsatmalar mavjud.

Ruhiy salomatlik borasida Prezident Farmon va qarorlari ijrosini ta'minlash, aholiga tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimiga psixogen va psixosomatik kasalliklar psixogigienasi, psixoprofilaktikasi, psixodiagnostikasi, psixoterapiyasi, psixofarmakoterapiyasi, psixoreabilitatsiyasi va tibbiy-psixologik ekspertiza kabi yo'nalishlar davolash-profilaktika muassasalariga keng tadbiriq qilinsa aholiga ko'rsatiladigan tibbiy-psixologik yordam tizimi sifati oshadi, hayot sifati oshadi.

Shu sababli ushbu ishning asosiy maqsadi hozirgi kunda aholi orasida ko'payib borayotgan psixosomatik sindromlar, psixosomatik kasalliklar va psixoemotsional sferadagi buzilishlarni erta aniqlash ularni oldini olish hamda to'g'ri tashxislashda talabalarga bilim berish va amaliy ko'nikma xosil qilishni o'rgatishdan iborat.

Mavzu: Tibbiyotda psixodiagnostik metodlar

1. Mashg'ulotni o'tkazish joyi, jihozlar

- Pedagogika va psixologiya kafedrası
- slaydlar, jadvallar, so'rovnomalr, tarqatma materiallar va jihozlar.

2. Mashg'ulot maqsadlari

- Psixodiagnostika va uning tarixi;
- Psixodiagnostika metodlari haqida ma'lumot berish;
- Psixodiagnostik tekshiruvlarning asosiy maqsadlari to'g'risida talabalarga ma'lumot berish ;
- Tibbiyotda psixodiagnostika metodlarini qo'llashning zarurati va shartlari bilan talabalarni tanishtirish;

Vazifalari

Talaba bilishi lozim:

- Psixodiagnostika haqida umumiy tushuncha.
- Psixodiagnostika metodlari va ularning turlarini.
- Psixodiagnostika tekshiruvlarining qo'llanilish maqsadi.
- Psixodiagnostikaning shaxs individual xususiyatlarini aniqlashda qo'llanilishi.
- Psixodiagnostikaning kognitiv buzilishlarni aniqlashda qo'llanilishi.
- Psixodiagnostikaning psixoemotsional sfera buzilishlarini aniqlashda qo'llanilishi.

Talaba bajara olishi lozim:

- Shaxs tipi va temperament turini aniqlay olishni;
- Diqqat buzilishlarini aniqlay olishni;
- Xotira buzilishlarini aniqlay olish;
- Tafakkurni tekshirish usullarini;
- Depressiyani aniqlay olishni;
- Xavotir buzilishlarni aniqlay olishni;

3. Asoslash

Bu mavzuni o'rganish psixologiyadagi bilimlarni tibbiyotda bemorlar ruhiyatidagi buzilishlarni, psixosomatik sindrom va kasalliklarni erta aniqlash va to'g'ri tashxis qo'ya olishlarida qo'llay olishi , talabalarining somatopsixologik kasalliklarlarga olib keluvchi buzilishlarni aniqlashni bilishlari uchun katta ahamiyatga ega. Bu bilimlar talabaning klinik fanlarni o'rganishida va turli bemorlarga psixologik to'g'ri tashxis qo'ya olishlari amaliyotida kerak bo'ladi.

4. Fan ichidagi va fanlararo o'zaro bog'liqlik

Bu mavzuni o'rganilishi tibbiy psixologiya, psixiatriya, klinik psixologiya, nevrologiya, asab tizimining normal, patologik fiziologiyasi va barcha tor mutaxassisliklar fanlar asosida talabalar oladigan bilimlarga asoslangan. Mashg'ulot davomida olingan bilimlar barcha klinik fanlarni o'rganishda qo'llaniladi.

5. Mashg'ulot mazmuni

Nazariy qismi

Psixodiagnostika va uning tarixi:

Psixodiagnostika metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi psixologiyaning, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, amaliy psixologiyaning asosiy va eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan psixodiagnostika fani va uning asoslarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixodiagnostika fani predmeti ta'rifiga turli yondoshuvlari uchratish mumkin. Ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Rus psixologlari A.A.Bodalev va B.B.Stolin psixodiagnostika fani predmetiga quyidagi ta'rifni beradilar: *Psixodiagnostika* - shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya fani sohasi.

Psixolog Gurevich K.M. fikriga ko'ra, *psixodiagnostika* — insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilariga ko'ra tasniflash hamda farqlash metodlari haqidagi fandır.

R.S.Nemovning ta'kidlashicha, *psixodiagnostika* -bu maxsus bilimlarning shunday sohasiki, u individ yoki guruh tomonidan erishilgan psixologik rivojlanish darajasi hamda psixik holat, xususiyatlarini aniq baholashning nazariyasi, metodologiya va metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. *Psixodiagnostika*—psixologik diagnostik qo'yish haqidagi fan.

“Psixodiagnostika” termini dastlab psixiatriyada G.Rorshaxning (1921- yil) shu nomli asari nashr etilgach keng qo'llanilib, tez orada tibbiyot sohasi chegaralaridan chiqadi. “Diagnostik” termini normal taraqqiyotdan har qanday og'ish va uni aniqlash sifatida tushunila boshlandi.

Psixologik diagnostik - (“diagnosis” grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi) - shaxs individual-psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baho berish, rivojlanishni oldindan aytib berish, yani, prognoz qilish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.

Psixodiagnostika - shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya fani sohasi.

Psixodiagnostika nazariy fan sifatida psixologiya fanining boshqa predmetli sohalari bilan uzviy bog'langan. Psixodiagnostikaning nazariy-eksperimental psixologiya bilan bog'liqligi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Umuman olganda psixodiagnostika muayyan fanlarda mavjud bo'lgan tushunchalarni konkret metodikalarga birlashtirish emas, balki nazariy psixologik maslahatlarning to'g'ri ekanligini tekshirish usuli hamdir. Masalan, inson faoliyati motivlariga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi, deb ta'kidlansa, unda turli insonlarga xos bo'lgan motivlarni aniqlovchi metodlarni topish talab qilinadi. Bundan tashqari psixodiagnostika umumiy psixologiya, differentsial psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, huquq psixologiyasi, harbiy psixologiya, mehnat psixologiyasi va sport psixologiyasi kabi fanlar bilan uzviy aloqada. Shuningdek, psixodiagnostika amaliy fan sifatida amaliy psixologiyaning psixoprofilaktika, psixologik tashviqot, psixologik korreksiya, psixologik maslahat kabi sohalar bilan o'zaro munosabatda hisoblanadi.

Ilmiy psixologik diagnostika yuzaga kelgunicha bo'lgan davrda sodda psixologik diagnostika mavjud bo'lib, uning mazmunini fiziognomika, frenologiya, grafologiya, xirromantiya kabi vositalar tashkil etadi.

Psixologiya fanining har bir tarmog'ining o'ziga xos yuzaga kelish va rivojlanish tarixi mavjud. Psixologik diagnostikaning psixologiya fanidan ajralib chiqish sanasi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri kelib, bunga asosiy sabab amaliyot talablari bo'lgan. Psixodiagnostikaning yuzaga kelishi psixologiyadagi bir qator yo'nalishlarning rivojlanishi asosida amalga oshdi va tayyorlandi. Psixodiagnostika fani yuzaga kelishining birinchi manbai eksperimental psixologiya

hisoblanadi. Psixodiagnostik metodikalar asosini eksperiment metodi tashkil etganligi sababli ham ulami ishlab chiqish psixodiagnostikaning vazifalaridan biridir. Aynan shu ma'noda psixodiagnostika "eksperimental psixologiya" asosida yuzaga keldi deb aytish mumkin. Eksperimental psixologiyani yuzaga kelish davri 1879 yil bo'lib, aynan mana shu yili Germaniyada eksperimental psixologiya bo'yicha birinchi laboratoriya tashkil etildi. Uning asoschisi V.Vunt d hisoblanadi. U ikkita yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi:

- 1). Eksperimentga asoslangan tabiiy ilmiy yo'nalish;
- 2). Madaniyat (xalqlar psixologiyasi)ni o'rganishning psixologik metodlari asosiy rol o'ynovchi madaniy tarixiy yo'nalish.

V.Vunt d nazariyasiga muvofiq, tabiiy ilmiy eksperimental metodlarni faqat psixikaning quyi, elementar darajasiga nisbatan qo'llash mumkin. Shu tufayli uning laboratoriyasida asosan sezgilar va ular orqali yuzaga keluvchi harakat reaksiyalari, shuningdek, periferik va binokulyar ko'rish, ranglarni sezish kabi o'rganilgan. Bunday laboratoriyalar keyinchalik Fransiya, Gollandiya, Angliya, Shvetsiya, Amerikada ochildi. Eksperimental psixologiya rivojlanib borib, keyinchalik ancha murakkab psixik jarayonlarni ham o'rganish boshlandi. Masalan: F.Galton so'zli assotsiatsiyalar yaratdi va shu asosda tadqiqotlar o'tkazdi. F.Galton ishlari nashr qilingach, Vunt d ham assotsiativ metodlarni laboratoriyasida qo'llay boshladi.

XIX asrning oxirlarida G. Ebbinghaus birinchi bo'lib xotira qonunlarini o'rgandi. Amerikalik psixolog Dj. Kettel diqqat hajmi va o'qish malakalarini tadqiq qildi. Taxistoskop yordamida u turli omillar - shakl, harf, so'zlarni idrok qilish va so'z bilan atash uchun zarur bo'ladigan vaqtni aniqladi. Uning tajribasida diqqat hajmi 5 ta omildan iborat bo'ladi. Aylanayotgan barabandagi harf va so'zlarni o'qish bo'yicha eksperimentlar o'tkazib, Kettel antitsipatsiya fenomenini (idrokning ilgari ketishi) qayd qildi. Eksperimental metod psixologiya fanida keng qo'llanila boshlanishi odamlar orasidagi individual farqlar haqidagi bilimlarni yuzaga kelishiga olib keldi.

Psixologik testlar tarixi. Testlar juda katta tarixga ega. Qadim davrlardan to'g'ri turli xil maqsadlarda insonning qobiliyatlari, bilim ko'nikma va malakalari sinab kelingan. Masalan, eramizdan avvalgi uch ming yillik o'rtalarida Qadimgi Vavilonda xattotlar tayyorlovchi maktabni bitiruvchilarni sinash yo'lga qo'yildi. Kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan xattot mahalliy madaniyatning markaziy namoyondasi hisoblanib, u 4 ta arifmetik amalni, yer o'lchashni, mulkni bo'lishni bilishi hamda ashula aytish va musiqa asbobini chalish san'atini egallagan bo'lishi shart edi.

Qadimgi Misrda ham maktablarga qabul qilishda nomzodlar muayyan sinovlardan o'tishlari zarur bo'lgan. Avvalo ular bilan suhbat o'tkazilgan, tarjimai holga taalluqli ma'lumotlar qo'lga kiritilgan, ma'lumotlilik darajasi aniqlangan. Bulardan tashqari ularning tashqi ko'rinishi, suhbat olib borish malakasi ham baholangan. Shundan so'ng mehnat qilish, boshqalarni eshitish, jim tura olish malakalari tekshirilgan. Olovdan, suvdan, qorong'u yerto'lalardan yolg'izlik, qo'rqinch hislari sinab. Ma'lum bo'lishicha, bunday qattiq sinovlardan mashhur olim Pifagor ham muvaffaqiyatli o'tgan. Keyinchalik Gretsiyaga qaytgach, u shunday maktabga asos soldi, unga kiruvchilar o'zi boshidan o'tkazgan sinovlardan albatta o'tishlari shart bo'lgan. Manbalarning dalolat berishicha, (Golitsin N.N.,1855) Pifagor aqliy qobiliyatlarining muhim ahamiyatga egaligiga alohida e'tibor bergan. Buning uchun esa ularning aynan aqliy qobiliyatlarini diagnostika qilish zarurligini ta'kidlagan. Nomzodlarga murakkab matematik masala berilib, agar uni yecha olsalar, ular maktabga darhol qabul qilinganlar. Masalani yecha olmaganlarni esa o'quvchilar to'plangan zalga olib kirib, ular ustidan kulib, masxaralab, turli laqablar berishgan. Agar bunday nomzodlar bu holatdan muvaffaqiyatli chiqsa olsalar, ya'ni ularga javob qaytarsa olsalar hamda o'zlarini tuta bilsalar ularni maktabga qabul qilganlar. Pifagor yoshlarining yurishi va kulishiga alohida ahamiyat bergan, chunki ularning fikricha bular inson xarakterining eng yaxshi ko'rsatkichi hisoblanadi. U ota-onalar va o'quvchilarning tavsiyanomalariga diqqat bilan

munosabatda bo'lib, yangi o'quvchilarning o'z fikrini erkin bildira olishi, tortinmasligi, suhbatdoshlari bilan munozara qila olishini sinchikovlik bilan kuzatar edi.

Eramizdan 2200 yil avval qadimgi Xitoyda hukumatda amaldorlik lavozimini, martabasini qo'lga kiritish uchun qobiliyatlamini tekshirish tizimidan o'tish talab qilinar edi. Amaldorlar har 3 yilda qaytadan imtihon qilinib, imperatorning o'zi 6 yo'nalish: musiqa, kamondan otish, otda yurish, yozish, hisoblash, rasm-rusumlarni bilishi bo'yicha ularni sinovdan o'tkazardi.

Bu tarixiy ma'lumotlar individual qobiliyatlamini sinash ko'pchilik davlat ijtimoiy hayotining muhim va ajralmas qismi deb qarash to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Biroq, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida testlar tarixi va keng yoyilishi to'g'risida gapirish mumkinmi? Agar "test" so'zining inglizchadan "sinash", tekshirish, sinab ko'rish deb tarjima qilinishi ko'zda tutilsa, bu savolga "ha" deb javob berish mumkin. Biroq hozirgi paytda testni bunday ta'riflab bo'lmaydi. Vaqt o'tishi bilan test to'g'risidagi kundalik hayotiy tasavvurlar bilan ularning ilmiy tushunish o'rtasida katta farq borligi sezila boshlandi. Har qanday test o'z ichiga sinash elementlarini olsada, u faqat sinov emas, balki hozirgi vaqtda bir qancha ilmiy talablarga javob beradigan tadqiqot metodidir. Fan rivojlanishining har bir bosqichida testlarga qo'yiladigan talablar va ularning o'zlari ham o'zgarishlarga uchraydi.

XX asr boshlarida qobiliyatlarni o'rganishga bo'lgan amaliy ehtiyojlar individual farqlarni tadqiq qilish ilmiy muammosi shaklida tarkib topdi. Bu muammo dastlabki testlarning paydo bo'lishi uchun turtki bo'ldi. Mashhur ingliz olimi F. Galton 1884 - 1885 yillar davomida tadqiqotlar o'tkazdi. Uni 5 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan kishilar arzimagan haq evaziga laboratoriyalarda ularning jismoniy xususiyatlari - reaksiya tezligi, kuchi, organizmning qator fiziologik imkoniyatlari hamda psixik sifatlarini, jam 17 ko'rsatkich bo'yicha o'zlarini tekshirib ko'rishlari mumkin edi. Bu ko'rsatkichlar qatoriga - bo'yi, og'irlik, o'pkaning og'irlik sig'imi, kaft va musht kuchi, harflarni esda olib qolish, ko'rish o'tkirligi, ranglarni farqlash va boshqalar kiritildi. To'liq dastur asosida 9337 kishi tadqiq qilindi. F. Galtonning fikricha metodik testlar amaliyoti - fantaziya emas, balki u eksperimentni talab etadi. Bu intuitsiyaga asoslangan tekshirish va sinashning ming yillik amaliyotidan dastlabki muhim chekinish edi. Eksperiment fanning haqiqiy asosi sifatida qarala boshlandi. Bu haqida Dj. Kettell ham ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, psixologiyani asosini eksperiment va o'lchash tashkil etsagina u haqiqiy va aniq fan bo'la oladi. XX asming 30 yillari boshi ko'pchilik davlatlarda testlarning keng qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Fransiyada testlar defektologiya maqsadlarida hamda kasbga yo'naltirish sohasida, AQShda testlar ishga, oliy o'quv yurtiga qabul qilishayotganda talaba va o'quvchilar bilimlarini baholash uchun hamda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda qo'llanila boshlandi.

Shunday qilib *psixologik testlar* - bu muayyan psixologik xususiyatni (o'lchash) aniqlash imkonini beradigan nazariy va amaliy jihatdan asoslangan topshiriq, mulohazalar tizimidir. Nazariy asoslanganlik hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlaridan kelib chiqib, test va uning natijalarini har tomonlama tahlil qilishni ko'zda tutadi. Empirik asoslanganlik esa tajribaga, o'lchash va eksperimentga murojaat qilinishi bilan bog'liq.

Psixosotsial stress oshqozon ichak faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, turli xil gastrointestinal buzilishlarni yuzaga keltiradi. Bular ichida ko'ngil aynishi, qayt qilish, ich ketishi, qabziyat, qorin soxasida og'riqlar ko'p uchraydi. Tanada kechadigan har qanday jarayon miya ishtirokisiz bo'lmasligi Gippokrat, Galen va Dekart o'z asrlarida ta'kidlab o'tgan.

Psixodiagnostika metodlar:

Psixodiagnostika metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi :

Klinik suhbat. Bunda bemor bilan terapevtik suhbat davomida uning shaxsiy xususiyatlari va ruhiy holati haqida ma'lumot oladigan tajribali psixolog tomonidan amalga oshiriladi. Ichki muammolar, ongsiz istaklar va inson xatti-harakatlarining yashirin motivlari mavjudligini tashxislash va tan olish imkonini beradi. U erkin shaklda amalga oshiriladi.

Anketalar. Ularning yordami bilan shifokor yoki psixolog shaxsdagi qiziqish va moyilliklarni aniqlashi, insonning kasbiy yo'nalishini, uning qadriyatlari va xarakterini aniqlashlari mumkin. Ularning orasida maxsus guruhni ajratib ko'rsatish mumkin - kompleks tahlil qilish uchun psixologiyada keng qo'llaniladigan multifaktorial shaxs so'rovnomalari mavjud.

Shkalalar. Ular bir vaqtning o'zida asab tizimining bir nechta xususiyatlarini (samaradorlik, kommutatsiya va boshqalar) bir-biriga nisbatan tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, psixodiagnostik shkalalar yordamida insonning psixo-emotsional holati qanday buzilishlar borligi va davolash qanchalik samarali ekanligini kuzatish mumkin.

Proyektiv usullar - bu testlar to'plamini o'z ichiga oladi, shu jumladan assotsiativ, izohli va ekspressiv. Ular birgalikda shaxsiy xususiyatlarni samarali tadqiq qilish imkonini beradi.

Klinikada psixodiagnostik tekshirish usullari qanday maqsadlarda qo'llaniladi?

Birinchidan, shifokorlar tashxis qo'yishda qiyinchiliklarga duch kelgan hollarda. Ma'lumki, bir qator hollarda psixodiagnostika usullari tibbiy tashxisni aniqlashtirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, psixodiagnostika ko'pincha terapiya samaradorligini baholash uchun ishlatiladi.

Va nihoyat, psixodiagnostika bemorlarni mehnat, harbiy va sud-tibbiy ekspertiza maqsadida tekshirishda zarur.

Klinika bemorlarini psixodiagnostik tekshirishning asosiy xususiyati kamroq rasmiy diagnostika usullari ya'ni kuzatish va suhbat muhim rol o'ynaydi. Klinik psixolog bu usullarni mukammal egallashi, bemorlar bilan suhbatlashish, ularni aniq kuzatish va ruhiy holatini ilk buzilishlarida anglab olishda katta mahoratga ega bo'lishi zarur. Suhbat davomida bemorlar bilan aloqa o'rnatiladi, ularning ruhiy va jismoniy holatining turli xil ko'rinishlari aniqlanadi, kasallikning shikoyatlari, ko'rinishlari, uning boshqa odamlar bilan munosabatlariga ta'siri va boshqalar qayd etiladi hikoya, nutq xususiyatlari bemorning shaxsiyati, uning xarakteri haqida tushuncha berishi mumkin, bu shifokor va bemorning samarali o'zaro ta'siri uchun juda foydali bo'ladi.

Kuzatish, suhbat kabi metodlar bemorlarni psixodiagnostik tekshirishda asosiy o'rinni egallaydi va boshqa tadqiqot usullariga hamroh bo'ladi. Bemorning simulyatsiyasi va dissimulyatsiyasini aniqlashda alohida rol o'ynaydi. Biroq, klinik psixolog o'zini faqat suhbat va kuzatish usullaridan foydalanish bilan cheklab qo'ya olmaydi, ular bemor haqida aniqroq ma'lumot beradigan eksperimental tadqiqotlar bilan to'ldirilishi kerak. Eksperimental tadqiqotda bemorga individual aqliy funktsiyalarni tashxislashga qaratilgan bir qator vazifalarni bajarish so'raladi. Ish faoliyatini tahlil qilish tizimli bo'lib, psixik sohaning anomaliyalarida bir psixik jarayonning buzilishi tizimli ta'sirga, ya'ni boshqa jarayonlarning buzilishiga olib kelishini hisobga oladi.

Tibbiyotda psixodiagnostika metodlarini qo'llashning zarurati va shartlari:

Psixodiagnostik tekshiruv dasturiga qo'yiladigan talablar:

1. Psixodiagnostika usullar dasturi yuqori darajada ixtisoslashgan bo'lishi kerak (ya'ni. muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan), lekin ko'p qirrali, ya'ni, shaxsning (yoki guruhning) holatini ob'ektiv o'lchashga qaratilganligi va ma'lum bir vaqt meyorlarining o'rnatilganligi.
2. Psixodiagnostika usullar dasturi quyidagi elementlardan iborat bo'lishi kerak:
 - tekshiriluvchi uchun yo'riqnoma;
 - test bayoni;
 - olingan natijalarni kaliti;
 - test natijalarini sharhlash bo'yicha ko'rsatmalar;
 - mutaxassisni uchun maxsus qo'llanma;
3. Mezonlar. Dastur uchun usullarni tanlashda, birinchi navbatda, samaradorligini baholash uchun mezonlarni tanlash kerak. Bunda mutaxassi avval soddaroq metodlardan foydalanishi tavsiya etiladi.
4. Muayyan shaxsni o'rganish uchun ko'pincha o'zgartirish kerak nafaqat psixodiagnostika dasturidagi usullarning tarkibi, balki testni o'tkazish metodologiyasini o'zgartirish yoki yangisini

ishlab chiqish. Ushbu yangi usul haqiqiylik, ishonchlilik va boshqalar uchun sinovdan o'tkazilishi kerak.

5. Xulosa mazmuni uslubi nazariy tamoyillarga bog'liqligi.

6. Xulosa mazmuni maqsadni ko'rsatishi kerak.

7. Xulosa odatda harakatga qaratilgan bo'lishi kerak.

Taxminiy xulosa algoritmi

1. Shaxsning muammolari, shikoyatlari tavsifi (masalan, aqliy faoliyat, xotira, diqqat, charchoq).

2. Diagnostika rejasi va dasturining tavsifi.

3. Tekshiriluvchining savoliga aniq javob. Xulosaning bu qismi isbotlovchi yoki rad etuvchi alohida qoidalar shaklida taqdim etiladi dastlabki gipoteza va test ma'lumotlari bilan tasvirlangan holda.

4. Xulosa oxirida sinov paytida olingan eng muhim ma'lumotlar umumlashtiriladi.

Psixologik xulosalarning 3 turi mavjud.

Psixologik xulosalar turlari

1. Tavsiflovchi xulosa – shaxs xususiyatlarini o'z ichiga oladi

2. Baholash xulosasi – belgilangan mezonlarga muvofiq psixolog unda shaxsga o'zining professional munosabatini ifodalaydi .

3. Konsultatsiya bilan yakunlash – ya'ni tekshiriluvchida aniqlangan psixoemotsional sferadagi buzilishlarga asoslangan holda.

Kognitiv qobiliyatlar psixodiagnostikasi

Diqqatni tekshirish usullari:

Burdonning korrektura sinamasi

Maqsad: Diqqat o'tkirligi, turg'unligi va uni bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga o'tkazish tezligini tekshirish.

O'tkazish tartibi: Buning uchun maxsus blanklar va sekundomer kerak bo'ladi. Tekshiruv maqsadi tushuntiriladi. So'ngra tasodifiy ravishda joylashgan yirik raqamlar yozib qo'yilgan blank sinaluvchi qo'liga beriladi (1-jadval). U o'zi xohlagan bitta sonni (masalan, 8 ni) 60 soniya ichida vertikal ravishda o'chirib chiqishi kerak. Tekshiruvchi sekundomerni qo'liga olib "Boshlang", deb buyruq beradi va vaqtni belgilaydi. 60 soniyadan so'ng "Vaqt o'tdi" deyiladi va topshiriqni bajarish to'xtatiladi. Kelgan joyga belgi qo'yiladi. Har bir vertikal qator bajarilganda topshiriq to'xtatilib, tekshiruvga ketgan vaqt daftarga qayd qilib boriladi.

Burdonning korrektura sinamasi

(sinaluvchi qo'lida turadigan blank)

Ism sharifi _____ yoshi _____ sana _____

Topshiriq: Har bir qatordagi 8 raqamini vertikal yo'nalishda o'chirib chiqing. Sizga 60 soniya muhlat.

1	4	5	7	3	9	6	4	6	3	3	3	6	8	4	6	3	3	3	6	8	6	4
5	8	1	3	4	7	5	5	5	6	4	4	4	0	5	5	6	4	4	4	0	5	5
7	4	2	5	6	2	4	6	2	7	8	6	7	8	6	2	7	8	6	7	8	4	6
8	3	5	7	8	3	6	2	4	8	9	8	3	6	2	4	8	9	8	3	6	6	2
6	8	4	2	6	8	7	3	5	3	6	9	4	3	3	5	3	6	9	4	3	7	3
4	6	3	3	3	6	8	7	8	4	2	1	5	4	7	8	4	2	1	5	4	8	7

5	5	6	4	6	4	0	8	6	7	3	2	3	7	8	6	7	3	2	3	7	0	8
6	2	7	8	6	7	8	7	5	2	8	3	2	9	7	5	2	8	3	2	9	8	7
2	4	8	9	8	3	6	5	5	5	5	4	3	6	5	5	5	5	4	3	6	6	5
3	5	3	6	9	4	3	4	3	6	4	6	4	3	3	3	6	4	6	4	3	3	3
7	8	4	2	1	5	4	7	5	4	6	8	2	4	8	5	4	6	8	2	4	4	4
8	6	7	3	2	3	7	8	4	3	5	4	4	8	4	4	3	5	4	4	8	7	8
7	5	2	8	3	2	9	4	6	3	3	3	6	7	4	6	3	2	3	6	5	9	4
5	9	5	5	4	3	6	5	5	6	4	7	4	0	5	5	6	4	9	4	0	6	5
3	3	6	4	6	4	3	6	2	7	8	6	7	8	6	2	7	8	6	7	8	3	6
4	5	4	6	8	2	4	2	4	8	9	8	3	6	2	4	8	9	8	3	6	4	2
8	4	3	5	4	4	8	3	5	3	6	9	4	3	3	5	3	6	9	4	3	0	5
5	8	7	2	6	6	6	7	8	4	2	1	5	4	7	8	4	2	1	5	4	8	6
6	2	3	3	7	8	2	8	6	7	3	2	3	7	8	6	7	3	2	3	7	6	2
3	9	5	7	8	7	1	7	5	2	8	3	2	9	7	5	2	8	3	2	9	3	3
2	1	3	9	4	6	3	5	5	5	5	4	3	6	2	1	5	5	4	3	6	4	7
3	7	3	6	2	5	4	3	3	6	4	6	4	3	3	3	6	4	6	4	3	2	8
4	4	5	4	6	8	2	4	5	4	6	8	2	4	8	5	4	6	8	2	4	5	6
3	5	3	6	9	4	3	7	3	6	4	6	4	3	1	7	6	4	6	4	3	8	7
7	8	4	2	1	5	4	4	5	4	6	8	2	4	4	5	4	6	8	2	4	4	4
8	6	7	3	2	3	7	8	4	3	5	4	4	8	8	4	3	5	4	4	8	7	8
7	5	2	8	3	2	9	4	6	3	3	3	6	2	4	6	3	3	3	6	3	9	4
5	4	3	5	4	8	6	5	5	6	4	7	4	0	5	5	6	4	8	4	0	6	5
8	6	7	3	2	3	7	8	4	3	5	8	3	8	8	4	3	5	4	4	5	7	8
7	5	2	8	3	2	9	4	6	3	3	3	6	6	4	6	3	3	3	6	8	9	4
5	5	5	5	4	3	6	5	5	6	4	4	4	0	5	5	6	4	4	4	0	6	5
3	8	6	4	6	4	3	6	2	7	8	6	7	8	6	2	7	8	6	7	8	3	6
8	4	3	5	4	4	8	3	5	3	6	9	4	3	3	5	3	6	9	4	3	0	5
5	8	7	2	6	6	6	7	8	4	2	1	5	4	7	8	4	2	1	5	4	8	6
6	2	3	3	7	8	2	8	6	7	3	2	3	7	8	6	7	3	2	3	7	6	2
3	9	5	7	8	7	1	7	5	2	8	3	2	9	7	5	2	8	3	2	9	3	3
2	1	3	9	4	6	3	5	5	5	5	4	3	6	2	1	5	5	4	3	6	4	7
3	7	3	6	2	5	4	3	3	6	4	6	4	3	3	3	6	4	6	4	3	2	8
4	4	5	4	6	8	2	4	5	4	6	8	2	4	8	5	4	6	8	2	4	5	6
3	5	3	6	9	4	3	7	3	6	4	6	4	3	1	7	6	4	6	4	3	8	7

Xulosa yozish tartibi. Tekshiruv natijalari o‘chirmasdan o‘tkazib yuborilgan raqamlar, o‘chirilgan boshqa raqamlar va bajarishga ketgan vaqtga qarab baholanadi. Topshiriq 8-10 daqiqa ichida bajarilishi kerak. Bu norma. O‘nta xatogacha yo‘l qo‘yish ham norma hisoblanadi.

1. Diqqatning jamlanganlik darajasi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

DQ= (P1 - P2 -P3)/ P x 100%, bunda:

P1 – to‘g‘ri o‘chirilgan raqamlar;

P2 – o‘tkazib yuborilgan raqamlar;

P3 – xato o‘chirilgan raqamlar;

P – vertikal qatorda o‘chirish uchun tavsiya qilingan raqamlar yig‘indisi.

Diqqat kontsentratsiyasi darajasi (%):

81-100 – juda yuqori; 61-80 – yaxshi; 41-60 – o‘rta; 21-40 – yomon; 0-20 – juda yomon.

2. Diqqat turg‘unligi har bir vertikal qator uchun quyidagi formula asosida alohida-alohida baholanadi:

A = S / t, bunda

A – Diqqat turg‘unligi (temp выpolneniya);

S – vertikal qatorda ko‘rib chiqilgan sonlar;

t – bajarishga ketgan vaqt.

3. Diqqatni bir ob’ektdan ikkinchi ob’ektga o’tkazish ko’rsatkichini baholash quyidagi formula orqali bajariladi:

S – sinaluvchi ko‘rib chiqqan umumiy qatorlar soni.

O'tkazish tartibi: Krepelin jadvali, ya'ni blank, sekundomer va qalam kerak bo'ladi. Topshiriq qanday o'tkazilishi sinaluvchiga tushuntiriladi: "Ushbu blankdagi har bir vertikal qatorda orasiga qo'shuv va ayiruv belgilari qo'yilgan raqamlar bor. Siz ularni xayolda bajarib, natijani tagiga yozib borasiz. Men sizga har 20 soniya ichida "To'xtang!" deyman. Shu payt to'xtab keyingi vertikal qatorga o'tasiz".

Ko'rsatma: Ushbu jadvaldagi qo'shish va ayirishlarni xayolda bajarib, javobini yozib boshlang. Men "To'xtang" deganda, topshiriqni bajarishdan to'xtaysiz.

[illegible]

Natijalarni aks ettirish uchun blank (bu sinaluvchi qo'lida bo'ladi)

To'g'ri echilgan sonlar	Noto'g'ri echilgan sonlar	Echilmay o'tkazib yuborilgan sonlar

Natijalarni tahlil qilish va xulosa yozish. Har bir vertikal qatorda 20 soniya ichida qancha to'g'ri va noto'g'ri amallar bajarilganligi o'rganib chiqiladi. Masalan, sinaluvchi dastlabki 20 soniya ichida 12 ta qo'shuv-ayiruvni to'g'ri bajardi va 1 ta xatoga yo'l qo'ydi, keyingi 20 soniya ichida 10 ta to'g'ri, 2 ta noto'g'ri, undan keyingi 20 soniya ichida 11 ta to'g'ri, 3 ta noto'g'ri va h.k. Bu erda diqqat va aqliy charchash bo'yicha grafik tuzish ham mumkin. Ushbu metod asosida *ishchanlik ko'effitsienti* ($K_{ishch.}$) aniqlanadi:

$K_{ishch.} = S2/S1$, bunda

S2 – oxirgi to'rt qatordagi to'g'ri bajarilgan amallar yig'indisi;

S1 – birinchi to'rt qatordagi to'g'ri bajarilgan amallar yig'indisi.

Agar $K_{ishch.} = 1$ bo'lsa yoki unga yaqinlashsa, demak diqqat charchashi (*buni aqliy charchash deb ham atashadi*) yo'q. Jadvaldagi amallarni bajarish mobaynida xatolarning ko'payib borishi diqqat toliqishi, ya'ni aqliy charchashdan dalolat beradi.

Shulte jadvali

(sonlarni topib chiqish usuli)

Maqsad: Diqqat tezligi, xajmi va toliqish darajasini tekshirish.

O'tkazish tartibi: Buning uchun 5 ta jadval tanlab olinadi. Har bir jadval kamida 30x30 sm.li karton qog'ozda aks etgan bo'lishi kerak. Bu jadvallarda 1 dan 25 gacha bo'lgan sonlar xaotik tarzda joylashtirilgan bo'ladi. Qoida bo'yicha beshta jadval ham ketma-ket bajarib boriladi. Har bir jadvaldagi sonlarni topishga ketgan vaqt sekundomer yordamida daftarga qayd qilib boriladi. Sinaluvchi barcha sonlarni, ya'ni birdan oxirgi songacha ovoz chiqarib ko'rsatib berishi kerak.

Shulte jadvallari

14	18	7	24	21		9	5	11	23	20
22	1	10	9	6		14	25	17	19	13
16	5	8	20	11		3	21	7	16	1
23	2	25	3	15		18	12	6	24	4
19	13	17	12	4		8	15	10	2	22
5	14	12	23	2		21	12	7	1	20
18	25	7	24	13		6	15	17	3	18
11	3	20	4	16		19	4	8	25	13
6	10	9	22	1		24	2	22	10	5
21	15	9	17	8		9	14	11	23	16

Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish:

DT – diqqat tezligi (soniya) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

DT = $J_1 + J_2 + J_3 + J_4 + J_5 / 5$, bunda:

J_1 – birinchi jadvalga ketgan vaqt (soniya)

J_2 – birinchi jadvalga ketgan vaqt (soniya)

J_3 – birinchi jadvalga ketgan vaqt (soniya)

J_4 – birinchi jadvalga ketgan vaqt (soniya)

J_5 – birinchi jadvalga ketgan vaqt (soniya)

Shulte jadvali bo'yicha turli yoshlarda diqqat tezligi ko'rsatkichlari (soniya)

Yoshi	Ballar				
	5 ball (juda yuqori)	4 ball (yuqori)	3 ball (o'rtacha)	2 ball (past)	1 ball (o'ta past)
6-7 yosh	51 gacha	61-70	71-80	81-90	91 dan ko'p
8-9 yosh	41 gacha	51-60	61-70	71-80	81 dan ko'p
10-11 yosh	31 gacha	41-50	51-60	61-70	71 dan ko'p
12 yosh va kattalar	30 gacha	31-45	46-60	61-75	76 dan ko'p

Shunday qilib, sog'lom odam bitta jadvaldagi barcha sonlarni to'g'ri topishga 30-50 soniya vaqt sarflaydi. Yosh oshgan sayin topshiriqni bajarishga ketgan vaqt ham oshib boradi. Shulte jadvalining kompyuterlashtirilgan varianti **asab.uz** saytiga joylashtirilgan bo'lib, har bir odam o'zining diqqat tezligi, hajmi va toliqishini mustaqil ravishda tekshirib olishi mumkin.

Xotirani tekshirish usullari:

O'nta so'zni yodlash (Ebbingauz usuli)

Maqsad: Esab qolish darajasini tekshirish. Bu usul qisqa muddatli xotirani tekshirish uchun mo'ljallangan.

Zarur anjomlar: Buning uchun ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lmagan 10 ta so'z yozilgan jadval kerak bo'ladi. Masalan, *uy, olma, qalam, osmon, temir, ot, gul, qog'oz, daryo, rom*. Bu jadval psixologning qo'lida bo'lib, u bemorga tekshirish maqsadi va qoidalarini tushuntiradi.

Ko'rsatma: *"Hozir 10 ta so'zni o'qiyman. Siz meni diqqat bilan eshitib, o'sha so'zlarni eslab qolishingiz kerak. O'qishni tugatgach, siz ularni xohlagan ketma-ketlikda aytib berasiz"*.

Albatta, birinchi urinishda 10 ta so'zning barchasini eslab qolish qiyin. Shu bois bemorga yana quyidagi ko'rsatma beriladi:

"Hozir o'sha 10 ta so'zni qaytadan o'qib chiqaman. Siz esa ularning barchasini yana eslab qolib, menga aytib berishingiz kerak. Bir boshdan aytish shart emas".

Bemor barcha so'zlarni to'g'ri aytib bo'lmaguncha, tekshirish davom ettirilaveradi.

Natijalarni aks ettirib borish: Har bir urinish natijasi sinov blankida aks ettirib boriladi. Bemor qaysi so'zni aytgan bo'lsa, o'sha so'zning tagiga "+" belgisi qo'yib boriladi. Masalan, 1-urinishda 5 ta so'zni eslab aytib berdi, 2-urinishda 7 ta so'zni eslab aytib berdi va h.k. Agar bemor boshqa so'zni aytib yuborsa, ushbu so'z chetga yozib qo'yiladi. Oradan 30 daqiqa o'tgach, bemorni ogohlantirmasdan o'sha yodlab qolgan 10 ta so'zni qayta esga tushirib aytib berish so'raladi.

Sinov blanki

Ism sharifi _____ yoshi _____ sana _____

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Ortiqcha aytgan so'zi
	uy	olma	qalam	osmon	temir	ot	gul	qog'oz	daryo	rom	

1											
2											
3											
4											
5											
6											
7											
30 daq. so'ng											

Eslab qolish darajalari, ball:

1. **Eslab qolish juda yuqori** – 4 ball (2-3 urinishdan so'ng 10 so'zni to'la eslab takrorladi);
2. **Eslab qolishi yaxshi** – 3 ball (5-6 urinishdan so'ng 10 so'zni to'la eslab takrorladi);
3. **Eslab qolishi sust** – 2 ball (7-8 urinishdan keyin 10 ta so'zni to'la eslab takrorladi);
4. **Eslab qolish o'ta sust** – 1 ball (9-10 urinishdan keyin ham eslab qola olmayapti, bir joyda qotib qolyapti).


Natijalar ushbu grafikda aks ettirib boriladi:

Qisqa muddatli obrazli xotirani tekshirish

Maqsad: Qisqa muddatli obrazli xotirani tekshirish.

Zarur anjomlar: Turli shakldagi geometrik shakllar aks ettirilgan jadval (2.4-rasm), sekundomer, daftar, qalam.

Ko'rsatma: «Sizga hozir 9 xil geometrik shakl aks ettirilgan jadvalni ko'rsataman. Jadvalga qarab 18 soniya ichida barcha shakllarni eslab qolishingiz kerak. So'ngra esingizda qolgan shakllarni daftarga chizib berasiz».



Xulosa chiqarish: To'g'ri eslab qoling'an geometrik shakllar asosida xulosa chiqariladi. Normada 6 va undan ko'p shaklni eslab qolishi kerak.

Baholash gradatsiyasi, ball:

- 3 ball – 7-9 shaklni eslab qoldi, obrazli xotirasi yuqori;
- 2 ball – 5-6 shaklni eslab qoldi, obrazli xotirasi yaxshi;
- 1 ball – 3-4 shaklni eslab qoldi, obrazli xotirasi sust;
- 0 ball – 1-2 shaklni eslab qoldi, obrazli xotira o'ta past.

Raqamlarni eslab qolish

Maqsad: Raqamlarni eslab qolishga bo'lgan qisqa muddatli xotirani tekshirish.

Zarur anjomlar: Turli sonlar aks ettirilgan jadval (3.4-jadval), daftar, qalam.

Ko'rsatma: «Sizga 9 ta turli raqamlar aks ettirilgan jadvalni 18 soniya ichida ko'rsatib turaman. Siz ularni eslab qolib, joylashgan joyi bo'yicha daftarga yozib berishingiz kerak».

14	54	26
65	12	47
49	38	93

3.4-jadval. Raqamlarga bo'lgan xotirani tekshirish uchun jadval.

Xulosa chiqarish va baholash tartibi. Qancha ko'p raqam eslab qolsa, uning raqamlarga bo'lgan xotirasi shuncha kuchli hisoblanadi. Normada 6-7 xil raqamni eslab qolishi kerak.

Baholash gradatsiyasi, ball:

- 3 ball – 7-9 raqamni eslab qoldi, xotirasi kuchli;
- 2 ball – 5-6 raqamni eslab qoldi, xotirasi yaxshi;
- 1 ball – 3-4 raqamni eslab qoldi, xotirasi sust;
- 0 ball – 1-2 raqamni eslab qoldi, xotira o'ta past.

Tafakkurni tekshirish usullari

1. "Ortiqchasini chiqarib tashlash" usuli

Maqsad: Fikrlash doirasini aniqlash.

O'tkazilish tartibi: Sinaluvchiga har xil narsalar, o'simliklar va hayvonlarning nomlari yozilgan qator ko'rsatiladi. Nomlar qatori shunday tuzilishi kerakki, sinaluvchi ularning ichidan ma'no bo'yicha to'g'ri kelmaydigan nomlarni chiqarib tashlashi kerak.

Ko'rsatma: "Quyidagi so'zlarni o'qib chiqing. Ma'no va mazmuni jihatdan ushbu qatorga to'g'ri kelmaydigan bitta so'zni (nomni) chiqarib tashlang. Siz chiqarib tashlagan so'z (nom) nima uchun ushbu qatorga to'g'ri kelmasligini tushuntirib bering".

1. O'rdak, baliq, tovuq, kurka, xo'roz.
2. Karam, sabzi, turp, olma, sholg'om.
3. Kitob, daftar, kursi, bloknot, qog'oz.
4. Televizor, radio, kompyuter, telefon, devor.
5. Arra, bolg'a, mix, bolta, beshik, tesha.
6. Oltin, kumush, mis, alyuminiy, temir.
7. Parij, London, Bern, Rim, Tokio, Kopengagen.
8. Avstriya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Norvegiya, Oslo.
9. Qo'y, it, echki, ot, tovuq, xo'roz, bo'ri.
10. Kahva, choy, vino, sut, sharbat, bo'tqa.

Xulosa chiqarish: Agar qisqa muddat ichida hammasiga to'g'ri javob berib izohlab bersa, fikrlash doirasi yaxshi (3 ball), topshiriqni bajarishda birmuncha xatoliklarga yo'l qo'ysa, fikrlash

doirasi qoniqarli (2 ball), topshiriqning ma'no-mazmuniga tushunmay uni bajara olmasa, fikrlash doirasi past (1 ball) deb xulosa chiqariladi.

2. "Tanlab ko'rsatish" usuli

Maqsad: Fikrlash doirasini aniqlash.

O'tkazilish tartibi: Sinaluvchiga turli narsalar (ob'ektlar) nomi yozilgan qator ko'rsatiladi. Sinaluvchi ularni diqqat bilan kuzatib ob'ektlarning turli xususiyatlari bo'yicha ketma-ket joylab chiqish kerak.

Ko'rsatma:

1. Uchish tezligi bo'yicha ketma-ket joylashtiring: *raketa, dron, o'q, vertolyot, samolyot.*
2. Yorug'lik darajasi bo'yicha ketma-ket joylashtiring: *projektor, fonar, oy, quyosh, lampa, sham.*
3. Sekin yurishi bo'yicha ketma-ket joylashtiring: *quyon, toshbaqa, tipratikan, timsoh, qoplon.*
4. Dumining uzunligi bo'yicha ketma-ket joylashtiring: *tuya, quyon, olmaxon, tipratikan.*
5. Tanani issiq tutish darajasi bo'yicha joylashtiring: *mayka, palto, ko'ylak, kostyum.*
6. Uzunligi bo'yicha joylashtiring: *Toshkent teleminorasi, Eyfel minorasi, Rio-de Janeyro teleminorasi, Ostankino teleminorasi.*
7. Ushbu viloyatlarni er maydonining kattaligi bo'yicha joylashtiring: *Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm, Farg'ona, Toshkent.*
8. Qaysi alloma oldin tug'ilganligi bo'yicha joylashtiring. *Navoiy, Amir Temur, Ibn Sino, Gippokrat, Ogahiy.*
9. Issiqlikni tez o'tkazishi bo'yicha joylashtiring: *mis, alyuminiy, oltin, temir.*

Xulosa chiqarish: Agar qisqa muddat ichida hammasiga to'g'ri javob berib izohlab bersa, fikrlash doirasi yaxshi (3 ball), topshiriqni bajarishda birmuncha xatoliklarga yo'l qo'ysa, fikrlash doirasi qoniqarli (2 ball), topshiriqning ma'no-mazmuniga tushunmay uni bajara olmasa, fikrlash doirasi past (1 ball) deb xulosa chiqariladi. Albatta, bu erda qo'yilgan savol bo'yicha bilim darajasi ham ahamiyatga ega. Masalan, qaysi mutafakkir qachon tug'ilganligini sinaluvchi bilmasligi mumkin va h.k.

3. Fikrlash faolligini aniqlash

Buning uchun talabalarga turli xil topshiriqlar beriladi va vaqt belgilab olinadi. Har bir topshiriq 1 daqiqa mobaynida bajarilishi kerak.

1-topshiriq. "Men vaqtni belgilayman. Sizlar 1 daqiqa mobaynida daftarga A harfi bilan boshlanuvchi shaharlar nomini yozasiz. Qancha ko'p yozsangiz shuncha yaxshi". Belgilangan vaqt o'tishi bilan keyin daftarlar yig'ishtirib olinadi. Ko'rsatilgan harfga kim ko'p nom yozgan bo'lsa va ularning nomi to'g'ri bo'lsa, o'sha talabaning fikrlash faolligi yaxshi saqlangan hisoblanadi.

2-topshiriq. "Bir daqiqa mobaynida Toshkent shahrida mavjud bo'lgan yirik ob'ektlar nomini yozib chiqing. Kim ko'p nom yozsa, o'sha g'olib hisoblanadi. Biroq orfografik va stilistik xatolarga yo'l qo'ymang. Qisqartirishlar bo'lmasin".

Xuddi shu tartibda mevalar yoki sabzavotlar, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar nomini yozib ham fikrlash faolligi va doirasini tekshirish mumkin. Bunday topshiriqlar esda saqlash darajasini ham ko'rsatib deradi.

3-topshiriq. «Bir daqiqa mobaynida M, O', V, S harflardan foydalanib jumla tuzing. Masalan: «Men O'z Vatanimni Sevaman». Jumlar ma'no va mazmun jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak. Topshiriq bajarilgandan so'ng to'g'ri tuzilgan jumlar soni hisoblab chiqiladi.

4-topshiriq. O'qituvchi doskaga aylana, kvadrat, uzun chiziqlar, tsilindr, spiral, to'liqinli chiziq, doira va biror bir narsaning shaklini (masalan, uy, kema, poezd) yaratsa bo'ladigan turli geometrik shakllarni chizadi. So'ng o'qituvchi talabalarga ko'rsatma beradi: Bir daqiqa mobaynida ushbu geometrik shakllardan iloji boricha ko'proq tugallangan rasmlar yaratishingiz kerak. Faqat doskada ko'rsatilgan shakllardan foydalaning".

Topshiriq bajarib bo‘lingandan so‘ng to‘g‘ri tuzilgan rasmlar sanab chiqiladi. Bu topshiriq diqqat va xotira o‘tkirli, fikrlash qobiliyatini tekshirish uchun qo‘llaniladi.

Barcha topshiriqlar bajarib chiqilgandan so‘ng to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar soni hisoblab chiqiladi. Shu yo‘l bilan nafaqat talabalarning fikrlash qobiliyati, balki ularning bilimni baholashda ham foydalanish mumkin. Topshiriqni birinchi bo‘lib bajargan talabaga 5 ball, undan keyingi talabalarga esa 4, 3, 2 va 1 ball qo‘yiladi.

Intellekt darajasini tekshirish uchun Veksler testi (shkalasi)

Veksler testi (shkalasi) intellekt darajasini tekshirish uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan test hisoblanadi. Devid Veksler tomonidan 1939 yili ishlab chiqilgan. Ushbu test turli yoshda intellekt darajasini, aniqrog‘i, aqliy rivojlanish darajasini aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladi.

Veksler bo‘yicha IQ-ko‘rsatkichlari:

1. Juda yuqori – 130 ball.
2. Yuqori – 120-129 ball.
3. Yaxshi – 110-119 ball.
4. O‘rtacha – 90-109 ball.
5. Past – 80-89 ball.
6. Yomon – 70-79 ball.
7. Aqliy defekt – u 2,2%

Psixik statusni baholashning qisqa shkalasi

(Mini-Mental State Examination)

MMSE shkalasi (1975) turli etiologiyali kognitiv buzilishlarni aniqlash va baholash uchun keng qo‘llaniladi. Undan dementsiyaga gumon qilingan bemorni ko‘rikdan o‘tkazayotgan har bir nevropatolog, psixolog va psixiatr foydalanishi mumkin.

MMSE shkalasi blanki

Tekshiriluvchi Funksiya	Topshiriq	Ballar yig‘indisi
Vaqtning anglash	Vaqtning ayting (sana, oy, hafta kuni, yil, fasl)	0–5
Makonnang anglash	Hozir biz qaerdamiz? (xona, shifoxona, uy, shahar, davlat)	0–5
Idrok	Quyidagi 3 ta so‘zni takrorlang: suv, nina, qalam	0–3
Diqqat	100 dan 7 ni ayirib boring	0–5
Xotira	Haligi 3 ta so‘zni qayta esga tushiring	0–3
Gnoziz	Bu nima? (bemor unga ko‘rsatilgan narsalarning nomlarini aytishi kerak)	0–2
Jumlani takrorlash	Jumlani takrorlang: “Hech bo‘lmaganda, hech qachon”	0–1

Topshiriqni tushunish	Qog'ozni o'ng qo'lingiz bilan oling-da, uni ikki buklab stol ustiga qo'ying.	0–3
O'qish	Ushbu yozuvni ("Ko'zingizni yuming") ovoz chiqarib o'qing va uni bajaring	0–1
Yozish	Biror bir jumlani o'ylab uni qog'ozga yozing	0–1
Chizish	Ushbu rasmni chizing	0–1
Ballar yig'indisi		0–30

MMSE shkalasini to'ldirishning qonun-qoidalar

Vaqtning anglash. Bemordan bugungi sana, hafta kuni, oy, fasl va yilni to'la aytib berish so'raladi. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball qo'yiladi. Shunday qilib, sinaluvchi 0 dan 5 ballgacha to'plashi mumkin. Demak, umumiy ballar yig'indisi 0–5.

Makoni anglash. Sinaluvchiga quyidagi savol bilan murojaat qilinadi: "Hozir biz qaerdamiz?" Sinaluvchi davlat, shahar yoki viloyat, qarda tekshiruv o'tkazilayotgani (uy yoki shifoxona), hudud yoki bino, qavat yoki xona raqamini to'g'ri aytib berishi kerak. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball qo'yiladi. Bu vazifa uchun ham sinaluvchi 0 balldan 5 ballgacha to'plashi mumkin. Demak, umumiy ballar yig'indisi 0–5.

Depressiyani aniqlash uchun:

Tsung so'rovnomasi

(depressiyani baholash uchun)

Ism-sharifi _____ Tekshiruv sanasi _____

Ko'rsatma: Quyida keltirilgan har bir jumlaning diqqat bilan o'qing va aynan hozirgi paytda o'zingizni qanday his qilayotgan bo'lsangiz, shunga mos javoblarni belgilang. Savollar ustida uzoq o'ylanmang va xayolingizga kelgan birinchi javobni "+" bilan belgilang.

№	Savollar, vaziyatlar	Hech qachon	Ba'zan	Tez-tez	Deyarli har doim
1.	Men tushkunlikni his qilyapman				
2.	Ertalab men o'zimni juda yaxshi his qilaman				
3.	Men yig'lab turaman				
4.	Men tunda yomon uxlayman				
5.	Ishtaham yomon emas, ya'ni odatiy				

6.	Menga yoqqan odamlar bilan suhbatlashgim, ularning yonida bo'lgim keladi				
7.	Men vaznimni yo'qotayotganimni sezyapman				
8.	Meni qabziyat bezovta qiladi				
9.	Yuragim odatdagidan tezroq uradi				
10.	Men hech qanday sababsiz charchayman				
11.	Fikrlarim har doimgidek aniq va ravshan				
12.	Qo'limdan keladigan ishlarni osonlikcha bajaraman				
13.	Bezovtalikni his qilyapman va bir joyda o'tira olmayapman				
14.	Menda kelajakka ishonch bor.				
15.	Jahlim odatdagidan tezroq chiqyapti				
16.	Bir qarorga kelishim juda oson				
17.	Men foydali va zarur ekanligimni his qilaman				
18.	Men to'laqonli hayot kechiryapman				
19.	Men o'lsam boshqalarga yaxshi bo'lishini his qilyapman				
20.	Meni avvallari xursand qiladigan narsalar hozir ham xursand qiladi				

Tekshiruv natijalari bo'yicha xulosa chiqarish uchun ushbu kalitdan foydalaniladi. Unda javob variantlari va qo'yiladigan ballar gradatsiyasi keltirilgan. Ushbu kalit psixologning qo'lida bo'ladi.

Tsung so'rovnomasi kaliti

№	Javob variantlari va qo'yiladigan ballar gradatsiyasi			
	Hech qachon	Ba'zan	Tez-tez	Deyarli har doim
1	1	2	3	4

2	4	3	2	1
3	1	2	3	4
4	1	2	3	4
5	4	3	2	1
6	4	3	2	1
7	1	2	3	4
8	1	2	3	4
9	1	2	3	4
10	1	2	3	4
11	4	3	2	1
12	4	3	2	1
13	1	2	3	4
14	4	3	2	1
15	1	2	3	4
16	4	3	2	1
17	4	3	2	1
18	4	3	2	1
19	1	2	3	4
20	4	3	2	1

Ma'lumotlarni tahlil qilish va hisoblash

To'g'ri savollar: 1, 3, 4, 7, 8, 9, 10, 13, 15, 19

Teskari savollar: 2, 5, 6, 11, 12, 14, 16, 17, 18, 20

Depressiya darajasi (DD) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DD = \sum_{to'g'} + \sum_{tes}$$

Bu erda $\sum_{to'g'}$ – belgilangan “to'g'ri” savollar yig'indisi;

$\sum_{tes}$ – belgilangan “teskari” savollar yig'indisi.

Ballar yig'indisi:

Depressiya yo'q – 25-49

Engil depressiya – 50–59

O'rta darajali depressiya – 60–69

Og'ir depressiya – 70 va undan yuqori.

Xavotirni aniqlash uchun:

Spilberger-Xanin so'rovnomasi (xavotir darajasini baholash uchun)

Ushbu so'rovnoma reaktiv va shaxsiy xavotirni aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi. So'rovnoma 40 ta savoldan iborat bo'lib, 1 dan 20 gacha bo'lgan savollar – reaktiv xavotir (RX), 21 dan 40 gacha bo'lgan savollar – shaxsiy xavotir (ShX) darajasini baholash uchun tanlangan. So'rovnomaning to'ldirishiga 10 daqiqa vaqt ketadi.

So'rovnoma blanki

Ism-sharifi_____ Tekshiruv sanasi_____

Ko'rsatma. Quyida keltirilgan har bir jumlani diqqat bilan o'qing va aynan hozirgi paytda o'zingizni qanday his qilayotgan bo'lsangiz, shunga mos javoblarni belgilang. Savollar ustida uzoq o'ylanmang va xayolingizga kelgan birinchi javob katagiga "+" belgisini qo'ying,

Blankning old tomoni (reaktiv xavotir)

№	Savollar, vaziyatlar	Aslo unday emas	Balki shundaydir	To'g'ri	Juda to'g'ri
1.	Men tinchman				
2.	Menga hech narsa xavf solmaydi				
3.	Mening asablarim taranglashgan				
4.	Men afsus chekyapman				
5.	Men o'zimni erkin his etyapman				
6.	Men xafaman				
7.	Meni ro'y berishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklar qiynayapti				
8.	Men ruhiy xotirjamlikni his qilyapman				
9.	Men xavotirdaman				
10.	Men ichki qoniqishni his qilyapman				
11.	Men o'zimga ishonaman				
12.	Men asabiylashyapman				
13.	O'zimni qo'yishga joy topa Olmayapman				
14.	Mening asablarim tarang				
15.	Men tanglikni his qilmayapman, siqilmayapman				
16.	Men mamnunman				
17.	Men tashvishdaman				
18.	Asablarim juda qo'zg'algan va o'zimni nazorat qila olmayapman				

19.	Men xursandman				
20.	Kayfiyatim chogʻ				

Blankning orqa tomoni (shaxsiy xavotir)

№	Savollar, vaziyatlar	Hech qachon	Deyarli hech qachon	Tez-tez	Deyarli har doim
21.	Doim koʻtarinki kayfiyatda yuraman				
22.	Mening jahlim chiqib turadi				
23.	Mening xafa boʻlishim oson				
24.	Men ham xuddi boshqalar kabi omadli boʻlishni xohlardim				
25.	Men koʻngilsizliklardan qattiq siqilaman va uzoq vaqt unuta olmay yuraman				
26.	Men kuch-quvvat yogʻilib kelishini his qilaman va ishga shoʻngʻigim keladi				
27.	Men tinchman, sovuqqonman va oʻzimni yigʻib olganman				
28.	Meni roʻy berishi mumkin boʻlgan qiyinchiliklar xavotirga soladi				
29.	Men arzimagan narsalarga ham juda siqilaveraman.				
30.	Menda oʻta baxtiyorlik onlari boʻlib turadi				
31.	Men hamma narsani yuragimga yaqin olaveraman				
32.	Menda oʻzimga ishonch etishmaydi				
33.	Men oʻzimni himoyasizdek his etaman				
34.	Men oʻta ogʻir vaziyatlar va qiyinchiliklardan chetroq yurishga harakat qilaman				

35.	Men o‘zimni ma’yus his etaman				
36.	Mening ko‘nglim shod bo‘lib turadi				
37.	Arzimagan narsalar mening fikrimni chalg‘itadi va hayajonga soladi				
38.	Men o‘zimni omadsizdek his qilib turaman				
39.	Men vazmin odamman				
40.	Ishlarim va rejalarim haqida o‘ylasam, meni kuchli xavotir egallab oladi				

Reaktiv xavotir ham, shaxsiy xavotir ham ushbu kalit orqali baholanadi. Unda savollar (vaziyatlar) raqami, javoblar varianti va ularga qo‘yiladigan ballar gradatsiyasi keltirilgan. Ushbu kalit psixologning qo‘lida bo‘ladi.

Spilberger-Xanin so‘rovnomasi kaliti

RX	Javoblar				ShX	Javoblar			
№	Aslo unday emas	Balki shunday-dir	To‘g‘ri	Juda to‘g‘ri	№	Hech qachon	Deyarli hech qachon	Tez-tez	Deyarli har doim
Reaktiv xavotir					Shaxsiy xavotir				
1	4	3	2	1	21	4	3	2	1
2	4	3	2	1	22	1	2	3	4
3	1	2	3	4	23	1	2	3	4
4	1	2	3	4	24	1	2	3	4
5	4	3	2	1	25	1	2	3	4

6	1	2	3	4	26	4	3	2	1
7	1	2	3	4	27	4	3	2	1
8	4	3	2	1	28	1	2	3	4
9	1	2	3	4	29	1	2	3	4
10	4	3	2	1	30	4	3	2	1
11	4	3	2	1	31	1	2	3	4
12	1	2	3	4	32	1	2	3	4
13	1	2	3	4	33	1	2	3	4
14	1	2	3	4	34	1	2	3	4
15	4	3	2	1	35	1	2	3	4
16	4	3	2	1	36	4	3	2	1
17	1	2	3	4	37	1	2	3	4
18	1	2	3	4	38	1	2	3	4
19	4	3	2	1	39	4	3	2	1
20	4	3	2	1	40	1	2	3	4

Ma'lumotlarni tahlil qilish va hisoblash

Σ_1 – 3, 4, 6, 7, 9, 12, 13, 14, 17, 18 raqamlar yig'indisi;

Σ_2 – 1, 2, 5, 8, 10, 11, 15, 16, 19, 20 raqamlar yig'indisi.

Quyidagi formula

$$RX = \Sigma_1 - \Sigma_2 + 50$$

bo'yicha *reaktiv xavotir* (RX) darajasi aniqlanadi.

Xuddi shunday tarzda *shaxsiy xavotir* (ShX) darajasi aniqlanadi:

$$ShX = \Sigma_1 - \Sigma_2 + 35$$

Σ_1 – 22, 23, 24, 25, 28, 29, 31, 32, 34, 35, 37, 38, 40 raqamlar yig'indisi;

Σ_2 – 21, 26, 27, 30, 33, 36, 39 raqamlar yig'indisi.

Ikkala xavotir uchun ballar gradatsiyasi:

Engil – 30 balgacha;

O'rta – 31–45 ball;

Kuchli – 46 va undan yuqori ball.

To'plangan ballar yig'indisi 20 dan 80 ballgacha bo'lishi mumkin. Qancha ko'p ball to'plansa, xavotir (reaktiv va shaxsiy) darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Yuqori darajadagi xavotir (> 46) – yuqori darajadagi ichki ziddiyatlar va psixoemotsional buzilishlar xosilasidir. Bunday shaxslar, albatta, psixoterapevt (psixolog) yordamiga muhtoj. Psixolog xavotir sabablarini aniklaydi va psixoterapevtik muolajalar orqali ushbu insonda normal shaxs uchun xos bo'lgan xususiyatlar, ya'ni o'ziga ishonch, sobitqadamlik, muammoni xotirjam hal qilishni shakllantiradi.

Past darajadagi xavotir (<12) – apatiya, depressiya va so'ngan motivatsiya alomatidir. Ba'zida inson o'zida mavjud bo'lgan xavotirni siqib chiqarish uchun yoki o'zi haqidagi xulosani "ijobiy ko'rsatish" maqsadida javob variantlarini o'zgartirib belgilaydi. Umuman olganda o'ta past darajadagi xavotirga ega shaxslarda motivatsiya o'ta sust bo'ladi, ular mas'uliyatsiz bo'lishadi. Shu bois bunday shaxslar hayotda o'z o'rnini topib ketishda, turli qarorlar qabul qilishda va faol ishlash talab etiladigan joylarda birmuncha qiynalib qolishadi. Shuning uchun ham ular psixolog ko'rigiga muhtoj hisoblanadi. Psixolog ularda motivatsiyani tiklash yoki jonlantirish, "Men" ongini shakllantirish ustida ish olib boradi.

Engil va o'rta darajadagi xavotir (masalan, 20-40 ball) – har qanday faol hayot kechiruvchi inson uchun xos bo'lgan ko'rsatkich. Demak, bu patologiya emas. Engil va o'rta darajadagi xavotir tabiiy hol bo'lib, bunday shaxslarga psixoterapevtik yordam zarur bo'lmaydi. Aksincha, xavotirning o'ta pastligi psixologga uchrash zarurligini ko'rsatadigan vaziyatdir.

Reaktiv xavotir – insonni shu kunlarda xavotirga solayotgan vaziyatlarni baholab beruvchi holat bo'lib, atrofda bo'layotgan voqealarga uning munosabatini belgilaydi. Vaziyat o'zgarsa, xavotir darajasi ham o'zgaradi. Shu bois ham reaktiv xavotir o'zgaruvchandir.

Shaxsiy xavotir – har qanday insonning xavotirga bo'lgan moyilligini aks ettiruvchi va uning individualligini belgilab beruvchi xususiyat. Inson xayotiga tahdid soluvchi xavfli omillar shaxsiy xavotirda aks etadi. Shaxsiy xavotir reaktiv xavotirga qaraganda turg'un bo'lib, uning yordamida shaxs tiplariga ham oydinlik kiritish mumkin.

Xavotir va depressiyani aniqlash uchun:

Xavotir va depressiyaning hospital shkalasi (The hospital Anxiety and Depression Scale, HADS)

Ushbu shkala 1983 yili A.S. Zigmond va R.P.Snaith tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, somatik klinikalarda depressiya va xavotirni aniqlash uchun taklif qilingan. Shu bois ham bu shkala vrachlar tomonidan keng qo'llaniladi. HADS so'rovnomasini to'ldirish va tahlil qilish uchun 10-15 daqiqa etarlidir. So'rovnomaning bemorning o'zi to'ldiradi.

HADS so'rovnomasi blanki

Ko'rsatma: Har bir savolni diqqat bilan o'qib chiqing va xayolingizga kelgan javobning ro'parasiga belgi qo'ying. Savollar ustida uzoq o'ylanmang, vaholanki, xayolga kelgan birinchi fikr to'g'ri bo'ladi.

1. Xavotir	Mening asablarim taranglashgan. O'zimni qo'yishga joy topa olmayapman
3	Har doim
2	Tez-tez
1	Ba'zida
0	Aslo unday emas
2. Depressiya	Menda katta qoniqlash hissini uyg'otgan holatlar, hozir ham shunday his-tuyg'ularni uyg'otadi
0	Xuddi shunday
1	Shunday bo'lsa kerak
2	Juda kam holatlarda
3	Aslo bunday emas
3. Xavotir	Meni qo'rquv va xavotir bosyapti. Hozir men bilan dahshatli voqea sodir bo'ladigandek tuyulyapti.
3	Xuddi shunday va qo'rquv o'ta kuchli
2	Ha, shunday, biroq qo'rquv uncha kuchli emas
1	Ba'zan, biroq bundan men bezovta emasman
0	Aslo bunday emas
4. Depressiya	Men u yoki bu voqealarda kulgili vaziyatlarni topa olish va xoxolab kulish qobiliyatiga egaman.
0	Xuddi shunday
1	Shunday bo'lsa kerak
2	Juda kam holatlarda
3	Aslo unday emas
5. Xavotir	Menga tinchlik bermaydigan fikrlar miyamni chulg'ab olgan
3	Deyarli har doim
2	Ba'zi-ba'zida
1	Kam holatlarda
0	Deyarli kuzatilmaydi
6. Depressiya	Men o'zimni tetik his qilaman
3	Aslo bunday emas

2	Juda kam holatlarda
1	Ko'p holatlarda
0	Deyarli har doim
7.Xavotir	Men bemalol o'tirib tinchlana olaman
0	Xuddi shunday
1	Shunday bo'lsa kerak
2	Ba'zida
3	Aslo bunday emas
8.Depressiya	Go'yoki hamma ishlarni sekin qilayotgandekman
3	Deyarli har doim
2	Tez-tez
1	Ba'zan
0	Aslo unday emas
9.Xavotir	Men ichki taranglikni va titroqni his qilaman
0	Aslo his qilmayman
1	Ba'zida
2	Tez-tez
3	Deyarli har doim
10.Depressiya	Men tashqi ko'rinishimga e'tibor qilmay qo'ydim
3	Ha, xuddi shunday
2	Bunga vaqt topa olmayapman
1	Balki bunga kam e'tibor qaratayotgandirman
0	Men o'zimga alohida e'tibor qilaman
11.Xavotir	Men bir joyda tinch o'tira olmayman, doim behalovatman
0	Xuddi shunday
1	Shunday bo'lsa kerak
2	Ba'zida
3	Unday emas
12.Depressiya	Qilayotgan ishlarim menda qoniqish hissini hosil qiladi
0	Xuddi shunday
1	Ha, biroq avvalgidek emas
2	Juda kam hollarda
3	Aslo sezmayman
13.Xavotir	Meni birdan vahima bosadi
3	Haqiqatan ham, juda ko'p
2	Tez-tez
1	Ba'zida
0	Aslo unday emas
14.Depressiya	Menda yaxshi kitob, film, radio- va teleko'rsatuvlar qoniqish hissini uyg'otadi
0	Tez-tez
1	Ba'zida
2	Kam
3	Juda kam

Shkala 14 punktdan iborat bo‘lib, uning “xavotir” va “depressiya” uchun belgilangan punktlari mavjud:

Xavotir punkti (toq raqamlar — 1, 3, 5, 7, 9, 11, 13)

Depressiya punkti (juft raqamlar — 2, 4, 6, 8, 10, 12, 14).

Javoblar varianti: 0 – belgi yo‘q; 1 – engil; 2 – o‘rtacha; 3 – og‘ir;

4 – o‘ta og‘ir. Demak, ballar darajasining oshib borishi depressiya va xavotir darajasi oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Ballar yig‘indisi:

0-7 — me‘yor (xavotir va depressiya yo‘q);

8-10 — subklinik xavotir va depressiya;

11 va undan yuqori – kuchli xavotir va depressiya.

6. Joriy nazoratni baholash mezonlari

№	O‘zlash tirish %	Baho	Talaba bilimining darajasi
1	96-100%	A‘lo “5”	Tibbiyotda psixodiagnostika metodlari haqida to‘liq to‘g‘ri javob. Xulosa chiqara oladi va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, mustaqil tahlil qiladi. Vaziyatli misollarni to‘g‘ri hal qiladi, ijodiy yondoshadi, javoblarni to‘liq tahlil qiladi. Interaktiv o‘yinlarda faol, ijodiy qatnashadi, to‘g‘ri xulosa chiqaradi va tahlil qiladi. Psixodiagnostika testlarni to‘g‘ri qo‘llaydi va tahlil qiladi.
2	91-95%	A‘lo “5”	Tibbiyotda psixodiagnostika metodlari haqida to‘liq to‘g‘ri javob. Xulosa chiqara oladi va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, mustaqil tahlil qiladi. Vaziyatli misollarni to‘g‘ri hal qiladi, ijodiy yondoshadi, javoblarni to‘liq tahlil qiladi. Interaktiv o‘yinlarda faol, ijodiy qatnashadi, to‘g‘ri xulosa chiqaradi va tahlil qiladi. Psixodiagnostik testlarni to‘g‘ri qo‘llaydi va tahlil qilishda 1 xatoga yo‘l qo‘yadi.
3	86-90%	A‘lo “5”	Tibbiyotda psixodiagnostika metodlari haqida to‘g‘ri javob beradi, lekin 1-2 xatoga yo‘l qo‘yadi. Xulosa chiqara oladi va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, mustaqil tahlil qiladi. Vaziyatli misollarni to‘g‘ri hal qiladi, ijodiy yondoshadi, javoblarni to‘liq tahlil qiladi. Interaktiv o‘yinlarda faol, ijodiy qatnashadi, to‘g‘ri xulosa chiqaradi va tahlil qiladi. Psixodiagnostika testlarni to‘g‘ri qo‘llaydi va tahlil qilishda 2-3 xatoga yo‘l qo‘yadi.
4	81-85%	Yaxshi “4”	Tibbiyotda psixodiagnostika metodlari haqida to‘g‘ri javob beradi, lekin 2-3 xatoga yo‘l qo‘yadi. Amaliyotda qo‘llay oladi, mavzu mohiyatini tushunadi, dadil javob beradi, to‘g‘ri tasavvurga ega.

			Vaziyatli misollarni to'g'ri hal qiladi, ijodiy yondoshadi, javoblarni to'liq tahlil qiladi. Interaktiv o'yinlarda faol, to'g'ri xulosa chiqaradi. Psixodiagnostika testlarni to'g'ri qo'llaydi va tahlil qilishda 2-3 xatoga yo'l qo'yadi.
5	76-80%	Yaxshi "4"	Qo'yilgan savolni to'g'ri, lekin to'liqmas yoritadi. Tibbiyotda psixodiagnostika metodlari haqida javob beradi, lekin to'liq tasavvurga ega emas. Amaliyotda qo'llay oladi, mavzu mohiyatini tushunadi, dadil javob beradi, to'g'ri tasavvurga ega. Interaktiv o'yinlarda faol qatnashadi. Vaziyatli misollarni to'liq hal qila olmaydi. Psixodiagnostika testlarni qo'llay oladi, lekin tahlil qila olmaydi.
6	71-75%	Yaxshi "4"	Qo'yilgan savolni to'g'ri, lekin to'liqmas yoritadi. Tibbiyotda psixodiagnostika metodlari haqida javob beradi, lekin to'liq tasavvurga ega emas. Amaliyotda qo'llay oladi, mavzu mohiyatini tushunadi, dadil javob beradi, to'g'ri tasavvurga ega. Vaziyatli misollarni to'liq hal qila olmaydi. Psixodiagnostika testlarni qo'llay oladi, lekin tahlil qila olmaydi.
7	66-70%	Qoniqarli "3"	Tibbiyotda psixodiagnostika metodlarini to'liq bilmaydi, ba'zi metodlarida yanglishadi. Amaliyotda qo'llay oladi, mavzu mohiyatini tushunadi, dadil javob beradi, ba'zi savollarda to'g'ri tasavvurga ega. Vaziyatli misollarni to'g'ri hal qilgan, lekin izohlab bera olmaydi. Psixodiagnostika testlarni to'g'ri qo'llay olmaydi.
8	61-65%	Qoniqarli "3"	Berilgan savollarning yarmiga to'g'ri javob beradi. xatoliklar mavjud, yaxshi tasavvurga ega emas. Ishonchsizlik bilan javob beradi, ba'zi savollarda to'liq tasavvurga ega. Vaziyatli misollarni yechishda xatoliklarga yo'l qo'yadi. Psixodiagnostika testlarni qo'llashda qiynaladi.
9	60%	Qoniqarli "3"	Qo'yilgan savollarning yarmiga xato javob beradi. Psixodiagnostika turlarida xatoga yo'l qo'yadi. Ishonchsizlik bilan javob beradi va mavzu bo'yicha qisman tasavvurga ega. Psixodiagnostika testlarni yarmini qo'llaydi va xatoliklarga yo'l qo'yadi.
10	50-59%	Qoniqarsiz "2"	Savollarning 1/3 ga to'g'ri javob beradi. Psixodiagnostika metodlari va turlarida xatoga yo'l qo'yadi. Ishonchsizlik bilan javob beradi va mavzu bo'yicha qisman tasavvurga ega. Vaziyatli misollar noto'g'ri yondoshuv bilan noto'g'ri hal qilingan. Psixodiagnostika testlarni yarmini qo'llaydi va xatoliklarga yo'l qo'yadi.
11	46-49%	Qoniqarsiz "2"	Savollarning 1/4 ga to'g'ri javob beradi. Vaziyatli misollar noto'g'ri yondoshuv bilan noto'g'ri hal qilingan. Psixodiagnostika testlarida xatoliklarga yo'l qo'yadi.

12	41-45%	Qoniqarsiz “2”	Savollarning 1/5 qismini yorita oladi. Vaziyatli misollar noto‘g‘ri yondoshuv bilan noto‘g‘ri hal qilingan. Psixodiagnostika testlarni qo‘llay olmaydi.
13	36-40%	Qoniqarsiz “2”	Savollarning 1/10 qismini noto‘g‘ri yondoshuv bilan yorita oladi. Psixodiagnostika testlarni qo‘llay olmaydi.
14	31-35%	Qoniqarsiz “2”	Savollarga javob bermaydi. Psixodiagnostika testlar haqida tasavvurga ega emas.

6. Mashg‘ulotning xronologik xaritasi

Amaliy mashg‘ulotga ajratilgan vaqt – 80 minut	
O‘quv mashg‘ulotining shakli: Amaliy mashg‘ulot	
O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi:	1. Kichik guruhlariga bo‘linish 2. Kichik guruhlarda mavzuni qisqacha taqdimoti 3. Kichik guruhlarda mavzuga oid savollar muhokamasi va javoblarni taqdim qilish 4. O‘quvchilar o‘zlari to‘ldirgan tarqatma materiallarni mohiyatini ochib berish va tahlil qilish. 5. Mavzu rejasiga doir muommoli savollarni kichik guruhlarda tahlil qilish va yechimlarni keltirish 6. Mashg‘ulotni yakuniy qismi barcha fikr mulohazalarni umumlashtirish va baholarni e‘lon qilish
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘quvchilarda kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogikaga doir bilimlarni shakllantirish. Interfaol metodlar haqida ma’lumot berish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Ta’lim metodlari va vositalari mazmun mohiyati haqidagi bilimlarini mustahkamlash 2. Tibbiyot darslariga interfaol metodlarni qo‘llash va o‘rganish. 3. Ta’lim jarayonida turli xildagi metodika va texnologiyalardan foydalanishni o‘rganish.	O‘quv faoliyatining natijalari: 1. Ta’lim metodlari va vositalari mazmun mohiyati haqidagi bilimlarini mustahkamlash 2. Tibbiyot darslariga interfaol metodlarni qo‘llash va o‘rganish. 3. Ta’lim jarayonida turli xildagi metodika va texnologiyalardan foydalanishni o‘rganish.
Ta’lim metodi	Kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, «Aqliy hujum» “Keyslar” bilan ishlash, metodlari
Ta’limni tashkil etish shakli	Amaliy mashg‘ulot, kichik guruhlarda ishlash

Didiaktik vositalar	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, proektor, doska. Kompyuter
Ta’limni tashkil etish sharoiti	Maxsus jihozlar bilan jihozlangan xona
Nazorat	O‘z-o‘zini nazorat qilish. savol-javob.

**Tibbiy psixodiagnostikada qo‘llaniladigan metod va metodikalar
mavzusidagi amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

Bosqich vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
I-Bosqich. (20 min).	1.1.Kichik guruhlariga bo‘linishni ta’minlaydi. 1.2. Mavzuning nomlanishi, maqsad va vazifalarini bayon etadi. 1.3. Guruhlar o‘rtasida savol javoblarni nazorat qiladi. “Aqliy hujum” (1-ilova) 1.4. Berilgan javoblarni anaziz qilib kamchiliklarni bartaraf etadi.	1.1. Kichik guruhlarda ishlaydilar 1.2. Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadi-lar.
II-Bosqich. Asosiy anglash bosqichi. (50 min).	2.1. Amaliy mashg‘ulotning asosiy rejalariga mos ma’lumotlar beriladi 2.2. Tibbiy psixodiagnostika-da qo‘llaniladigan metod va metodikalar mavzusida kichik guruhlarda talabalar tomonidan tayyorlangan taqdimot namoiyishi, qisqa savol javoblar, talabalar tamonida kichik guruhlarda krasvordlar yechish (2-ilova). 2.3 Mavzu rejasiga doir savollar beriladi va uni taxlil qilishadi. (3-ilova)	2.1. Guruhchalarga bo‘linib mavzuni o‘zlashtiradi, fikrlarini boshqalar bilan o‘rtoqlashadilar 2.2. Berilgan tarqatma materiallarni to‘ldirishadi va uni tahlil qilishadi. 2.3.Mavzu rejasiga doir savollarga o‘z variantlarini taqdim etishadi
III-Bosqich. Yakunlovchi bosqich (10 min).	3.1. Mashg‘ulotda olingan ma’lumotlarni aniqlashtirish uchun qo‘shimcha savollar beradi.(4-ilova) 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	3.1. Keyslar bilan ishlaydilar 3.3. Tinglaydilar, aniqlash-tiradilar va vazifani yozib oladilar.

7. Nazorat uchun savollar:

1. Umumiy psixodiagnostikaning predmetini qanday masalalar tashkil qi'ladi?
2. Psixodiagnostika fanining maqsadi qanday?
3. Tibbiyotda psixodiagnostika metodlarining ahamiyati?
4. Psixologik diaqnozning qanday bosqichlari farqlanadi?
5. Psixodiagnostika ijtimoiy amaliyotning qaysi sohalarida keng qo'llanilib kelinmoqda?
6. Psixodiagnostik ishlarni tashkil etishda psixolog amal qilishi lozim bo'lgan talablar mazmunini nimalar tashkil etadi?
7. Psixodiagnostika bilan shug'ullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
8. Psixodiagnostika mutaxassisi qanday sifatlariga ega bo'lishi kerak?
9. Diagnostik metodikalar qanday xususiyatlariga ko'ra tavsiflanishi mumkin?
10. Sinaluvchining nutqiy faolligi vositasida ifodalanadigan metodlar guruhi qanday ataladi?
11. Psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyasi uchun foydalaniladigan asoslar nima?
12. Diqqat buzilishlarini aniqlovchi testlarni aytib bering.
13. Xotira buzilishlarini qanday aniqlaymiz?
14. Depressiyani aniqlovchi shkalalar?
15. Xavotir buzilishlarini aniqlovchi shkalalar?

Qo'llanilgan adabiyotlar:

1. Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi kitobi 2019.
2. S.X. Jalilova, N.A. G'ayibova. Umumiy psixodiagnostika. kitobi —2018
3. Скоробач, Т.В. Диагностические возможности методики К.Пирсон и М. Марк «12 архетипов» / Т.В. Скоробач // Инсайт: сборник научных работ студентов, аспирантов и молодых ученых / ред.кол. И.В. Шапошникова, Е.Е. Блинова и др. – Херсон: П Вишемирский В.С., 2013
4. Капустина, Т.В. Экспресс-методы в психологическом консультировании / Т.В. Капустина // Психолог. – 2018.
5. Капустина, Т.В. Создание и апробация методики «Способ оценки личности – 12 архетипов плюс» для диагностики индивидуально-личностных характеристик / 23 Т.В. Капустина // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. – 2018
6. Капустина, Т.В. Психодиагностика личностных характеристик с помощью методики К. Пирсон и Х. Марр «12 архетипов» / Т.В. Капустина // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2016

